



Jizzax viloyat statistika boshqarmasi

Jizzax viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

2018 yil yanvar-dekabr (dastlabki ma'lumot)



Ish haqi. 2018 yil yanvar-dekabr oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ish haqi tahlili quyidagilarni ko'rsatmoqda:

Ta'lim iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Ta'lim sohasida

• ta'limda 41,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 42,0 %ni). Ta'lim sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1462,3 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 25,9 % ga o'sdi;

Sanoat iqtisodiy faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

(2018 yil yanvar- dekabr; kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)

Sanoat

• sanoatda 8,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 8,4 %ni) . Sanoat sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 821,6 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 32,2 %ga o'sdi;





Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Davomi



Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida

• sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 15,3 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 15,5 %ni) . Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 257,1 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 35,3 %ga o'sdi;

Tashish va saqlash faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi



Tashish va saqlash

• tashish va saqlashda 0,8 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 1,0 %ni).Tashish va saqlash sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal ish haqi 1 436,8 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 66,9 % ga o'sdi;



Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi

Davomi

Bank, sug'urta, lizing, kredit va vositachilik faoliyati

• moliyaviy va sug'urta faoliyatida 2,2 ming nafar (jami ishlovchilarga nisbatan ulushi 2,2 %ni). Moliyaviy va sug'urta faoliyati sohasida ishlovchilarga hisoblangan o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 2 935,5 ming so'mni tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan 1,0 %ga o'sdi.



Ma'lumot uchun: O'zbekiston Respublikasining Mehnat Kodeksiga muvofiq, muayyan davr uchun belgilangan mehnat normasini va mehnat vazifalarini to'liq bajargan xodimning oylik mehnat haqi qonun hujjatlarida Mehnatga haq to'lash yagona tarif setkasining birinchi razryadi (2018 yil derabr oyida **501,9 ming so'mni** tashkil etgan) bo'yicha belgilangan miqdordan oz bo'lishi mumkin emasligi ko'rsatib o'tilgan.



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ish haqi ko'rsatkichlarini umumlashtirish natijasida, 2018 yil yanvar-dekabr oylarida Jizzax viloyatida o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi 1 543,8 ming so'mni (ish haqiga ustama, mukofot, rag'batlantirish xususiyatiga ega to'lovlar, kompensatsiya va ishlanmagan vaqt uchun haq kabi to'lovlar kiritilgan, shuningdek uning tarkibida jismoniy shaxslar daromad solig'i, ijtimoiy sug'urta va kasaba uyushmasiga to'lovlar ham mavjud) tashkil etib, 2017 yilning mos davriga nisbatan **39,4 %** ga o'sishni ta'minladi.

Yuridik shaxslarda xodimlar soni va o'rtacha oylik ish haqi
(2018 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik sub'ektlaridan tashqari)


	Xodimlar soni, ming kishi	O'rtacha oylik ish haqi, ming so'm
Viloyat bo'yicha - jami	98,3	1543,8
<i>shu jumladan:</i>		
Sanoat	8,3	1821,6
Qurilish	0,2	1739,1
Savdo	1,5	2162,6
Tashish va saqlash	0,8	1436,8
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar		1604,9
Axborot va aloqa	0,5	1902,9
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2,2	2935,5
Ta'lim	41,2	1462,3
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	15,3	1257,1
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,7	1439,1
Boshqa faoliyat turlari	13,5	1543,7

2018 yil yanvar-dekabr oylarida 2017 yilning mos davriga nisbatan iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqining yuqori o'sish sur'ati savdo 113,6%, tashish va saqlash 105,1 %, sanoatda 75,1 %, boshqalar 24,8 %, moliyaviy va sug'urta faoliyatida 29,3% kuzatildi.

2018 yil yanvar-dekabr oylarida viloyatda o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan moliyaviy va sug'urta faoliyatida 90,1 % ga, savdoda 40,1%, axborot va aloqada 23,3 %ga, qurilishda 19,1 %da, sanoatda 12,7 %ga, yashash va ovgatlanish 4,0 %ga yuqorini tashkil etgan bo'lsa, aksincha sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 18,6 %ga, san'at, ko'ngil ochish va dam olish 6,8 % ga, viloyatdan kamni tashkil etmoqda.




O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi miqdori va o'sish sur'ati (2018 yil yanvar-dekabr, qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik)



O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi ko'rsatkichini viloyati hududlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, ya'ni o'rtacha oylik ish haqining yuqori miqdori Jizzax shahrida **1 914,8** ming so'mni (viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan **124,0** %), Zarbdor tumanida **1515,7** ming so'mni (**98,2%**) va Sh.Rashidov tumanida **1442,4** ming so'mni (**93,4%**) tashkil etgan bo'lsa, Forish tumanida **1 202,6** ming so'mni (**77,9** %), Zafarobod tumanida **1 262,4** ming so'mni (**81,8** %) Yangiobod tumanida **1 275,2** ming so'mni (**82,6** %) tashkil etib, boshqa hududlarga nisbatan kam miqdorga ega bo'lmoqda.

Hududlar bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (2018 yil yanvar-dekabr, viloyatdagi o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan, % da)



Jizzax viloyati bo'yicha o'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi (yanvar-dekabr; qishloq xo'jaligi va kichik tadbirkorlik)

	2017 yil	2018 yil	O'sish sur'ati, %
Jizzax viloyatida	1049,2	1543,8	494,6
Jizzax shahri	1408,9	1778,2	126,2
<i>viloyatlar:</i>			
Arnasoy	1159,9	1290,2	111,2
Baxmal	1067,6	1239,6	116,1
Gallaorol	1097,2	1170,7	106,7
Sh.Rachidov	1137,7	1315,1	115,6
Do'stlik	1060,7	1270,6	119,8
Zomin	1130,3	1304,6	115,4
Zarbdor	1177,5	1409,9	119,7
Zafarobod	1005,5	1189,0	118,3
Mirzacho'l	1079,1	1509,1	139,9
Paxtakor	1037,7	1400,2	134,9
Forish	985,4	1069,3	108,5
Yangiobod	953,9	1102,4	115,6

